

AHMAD AS-SARAXSIY VA SHARH AS-SIYAR AL-KABIR: XALQARO
HUQUQNING VUJUDGA KELISHI

Qudratov Javohir Komilovich

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti 4-kurs
talabasi Telefon raqami: +998(91)9598597 E-mail: qudratovjavohir201@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk faqih Ahmad as-Saraxsiy hayoti, ilmiy faoliyati tahlil qilinadi. Uning fiqh va kalom ilmlariga qo'shgan hissasi, xalqaro huquq yaratilishida muhim ahamiyat kasb etgan "Sharh as-Siyar al-Kabir" shuningdek zindonda bo'lgan vaqtida yozgan "Al-Mabsut" asarlari haqida so'z boradi. As-Saraxsiy merosi xalqaro huquqiy ongning shakllanishida muhim o'rin tutgani bir qator asarlarda yozib qoldirilgan.

Kalit so'zlar: Ahmad as-Saraxsiy, buyuk faqih, fiqh, xalqaro huquq, islom huquqi, hanafiylik, as-Siyar al-Kabir, al-Mabsut, xalqaro huquqning shakllanishi

Аннотация: В данной статье анализируется жизнь и научная деятельность великого факиха Ахмада ас-Сарахси. Рассматривается его вклад в развитие фикха и калама, а также роль труда "Шарх ас-Сийар аль-Кабир", сыгравшего важное значение в становлении международного права.

Особое внимание уделяется труду Ал-Мабсут, написанному им в тюрьме. Наследие ас-Сарахси занимает важное место в формировании международного правосознания, что отражено в ряде источников.

Ключевые слова: Ахмад ас-Сарахси, великий факих, фикх, международное право, исламское право, ханафизм, ас-Сийар аль-Кабир, аль-Мабсут, становление международного права.

Annotation: This article examines the life and scholarly activity of the great faqih Ahmad as-Sarakhsi. His contribution to the development of fiqh and kalam is highlighted, along with the significance of his work Sharh al-Siyar al-Kabir, which played a key role on the formation of international law. As-Sarakhsi's legacy occupies an important place in shaping international legal thought, as reflected in a number of sources.

Key words: Ahmad as-sarakhsi, great faqih, fiqh, international law, Islamic law, Hanafizm, al-Siyar al-Kabir, al-Mabsut, formation of international law.

KIRISH:

Bugungi kunda tarixda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi jahon miqyosida katta ahamiyat kasb etmoqda. Movarounnahrda hanafiy mazhabining yirik olimi, fiqh, usul al-fiqh, Muhammad ibn Ahmad ibn Abusahl Abu Bakr Shamsul-aimma as-Saraxsiy Movarounnahrda hanafiy mazhabining yirik vakili, fiqh, usul al-fiqh va kalom ilmlarining buyuk imomi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan. U iste'dodli munozarachi, iqtidorli alloma bo'lib, fiqhiy masalalarni yechishda mujtahidlar

darajasiga ko'tarilgan. Ustoz Abdulaziz Halvoniy xizmatida ilm olgan Saraxsiy, keyinchalik o'z davrining tengsiz faqihiga aylandi.

Saraxsiyning shogirdlari orasida mashhur faqihlar — Burhonul-aimma Abdulaziz ibn Umar ibn Moza, Muhammad ibn Ibrohim Hasiriy, Mahmud ibn Abdulaziz O'zjandiy va boshqa ko'plab allomalar bor edi. U o'z asrida ilmiy majlislarning yetakchi shaxsi bo'lib, murakkab masalalarda yuksak ijtihodiy qarashlarni ilgari surgan.

Saraxsiy siyosiy sabablarga ko'ra qamoqqa olinib, O'zgand shahrida uzoq muddat hibsda saqlandi. Aynan shu davrda u o'zining eng mashhur asari "al-Mabsut"ni shogirdlariga yoddan imlo qilib yozdirgan. Shuningdek, Muhammad Shayboniyning xalqaro huquqqa oid "as-Siyar al-kabir" asariga katta sharh yozib, uni zindonda tugalladi. Bu asarlar uning buyuk zakovati va ilmiy qudratini yaqqol ko'rsatadi.

Saraxsiyning xalqaro huquqiy merosi ham alohida e'tiborga loyiq. U Shayboniyning "as-Siyar al-kabir"iga yozgan sharhi orqali xalqaro huquq asoslarini rivojlantirdi va islomiy yondashuvni kengaytirdi. Mazkur sharh asrlar davomida nafaqat musulmon olimlari, balki g'arb tadqiqotchilarining ham diqqatini tortgan. 1825-yildan boshlab Yevropada nashr etilishi, keyinchalik 1917-yilda Hindistonda qayta chop qilinishi Saraxsiyning asarlarini keng ilmiy muhitga olib chiqdi. Natijada, g'arb olimlari ham Shayboniyning va Saraxsiyning xalqaro huquqiy qarashlarini tan ola boshladilar.

Buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi bugungi kunda nafaqat milliy, balki jahon miqyosida ham katta ahamiyatga ega. Shulardan biri Ahmad as-Saraxsiy (XI asr), hanafiylik mazhabining eng yirik faqihlaridan va xalqaro huquqning ilk asoschilaridan biridir. Uning "al-Mabsut" va "Sharh as-Siyar al-Kabir" asarlari nafaqat fiqh, balki xalqaro huquqiy ta'limotning shakllanishida ham katta o'rin tutadi. Ushbu maqolada as-Saraxsiyning ilmiy faoliyati, asarlari va xalqaro huquq ta'limotiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. "Sharh as-Siyar al-Kabir" nafaqat hanafiya huquqi, balki butun jahon huquqshunoslik tarixida xalqaro huquqning dastlabki ilmiy manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asarda olim davlatlararo shartnomalar, diplomatik munosabatlar, urush va tinchlik qoidalari, elchilik huquqi, xalqaro majburiyatlar va insonparvarlik prinsiplari haqida chuqur tahlillar yuritadi. U xalqaro tinchlikni saqlash uchun davlatlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va hamkorlik zarurligini ta'kidlaydi. Saraxsiy fikricha, har bir mamlakatning ichki huquqiy tartibi hurmat qilinishi kerak, bu esa xalqaro adolatning muhim sharti hisoblanadi.

Saraxsiyning 15 jildan iborat "Al-Mabsut" asari hanafiya fiqhining eng to'liq manbalaridan biri bo'lib, fihiy masalalarning keng tahlilini o'z ichiga oladi. Uning "Sharh as-Siyar al-Kabir" asari esa Muhammad ash-Shayboniyning xalqaro munosabatlarga oid asariga yozilgan batafsil sharhdir. Mazkur sharh o'z davrida musulmon olamida "xalqaro huquq nazariyasi"ni tizimli tarzda asoslab bergan birinchi ilmiy izlanish sifatida qadrlanadi.

Keyinchalik bu asar 1825-yilda Yevropada nashr etilganidan so'ng, G'arb olimlari tomonidan ham chuqur o'rganilgan. XX asrning oxirida YUNESKO uni xalqaro huquq

tarixining muhim yodgorliklaridan biri sifatida e'tirof etib, 1989–1991-yillarda to'rt jildda fransuz tilida chop ettirgan. Bugungi kunda bu asar turk, ingliz, nemis, fors va urdu tillariga ham tarjima qilingan bo'lib, dunyoning ko'plab universitetlarida xalqaro huquq tarixini o'rganishda asosiy manba sifatida foydalaniladi.

Saraxsiyning ilmiy merosi faqat fiqh bilan cheklanmay, xalqaro huquq nazariyasining shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. Uning qarashlarida tinchlik, adolat, tenglik, inson qadr-qimmat va xalqlar o'rtasidagi hurmat tamoyillari ustuvor o'rin egallaydi. Shu bois, Imom Saraxsiy bugungi zamonaviy xalqaro huquqning poydevorini qo'ygan alloma sifatida tan olinadi.

Shunday qilib, Saraxsiy nafaqat Movarounnahr ilmiy maktabining faxri, balki butun insoniyat uchun xalqaro adolat va tinchlik timsoli bo'lib qolmoqda. Uning asarlari bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan, O'zbekiston esa shu buyuk allomaning vatani sifatida xalqaro huquq tarixidagi eng qadimiy manbaga ega ekanligini faxr bilan aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islomda xalqaro huquq. Toshkent: Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom Instituti nashriyoti, 2018.
2. Mamadaliyev, A. "Shamsul-aimma as-Saraxsiy." Toshkent Islom Instituti ilmiy jurnali, 12-iyun, 2024.
3. Ahmad as-Saraxsiy. Sharh as-Siyar al-Kabir. Haydarobod: Majlis Dairat al-Ma'arif, 1917.
4. Mamadaliyev, A. "Shamsul-aimma as-Saraxsiy." Toshkent Islom Instituti ilmiy jurnali, 12-iyun, 2024. <https://islaminstitut.uz>